

Aziza Aliyeva

*Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik
fakulteti talabasi
Email: gg535571@gmail.com*

YANGI HUQUQIY REALIZM (NLR) NAZARIYASI: AQSH VA YEVROPADAGI KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy huquq sotsiologiyasining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblangan yangi huquqiy realizm (New Legal Realism, NLR) nazariyasining nazariy va metodologik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot huquqni faqat rasmiy-matniy jihatdan emas, balki uning ijtimoiy hayotda amaliy namoyon bo'lishini o'rganishga yo'naltirilganligiga e'tibor qaratadi.

Kalit so'zlar: yangi huquqiy realizm, huquq sotsiologiyasi, huquqni anglash, huquqiy amaliyot, yuridik ta'lim, empirik tadqiqot, postsovet makoni.

THE THEORY OF NEW LEGAL REALISM (NLR): ITS EMERGENCE AND DEVELOPMENT IN THE USA AND EUROPE

Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological foundations of the theory of New Legal Realism (NLR), which is considered one of the most important directions in modern sociology of law. The research focuses on the fact that it is aimed at studying law not only in its formal-textual aspect, but also in its practical manifestation in social life.

Keywords: new legal realism, sociology of law, legal consciousness, legal practice, legal education, empirical research, post-Soviet space.

Yangi huquqiy realizm (New Legal Realism, NLR) XX asrning 1990-yillari oxiri – 2000-yillar boshlarida anglo-amerika huquqshunosligi doirasida shakllanib, klassik realizm tajribasini yanada empirik va fanlararo shaklda qayta tiklashga bo'lgan urinish sifatida paydo bo'ldi. NLRning birinchi milliy yig'ilishi 1997-yilda Law & Society Association konferensiyasida ("Is It Time for a New Legal Realism?") mavzusi ostida o'tkazilgan [1]. Amerika Advokatlar Fondi (American Bar Foundation, ABF) va Viskonsin Universiteti (Madison) olimlari –

huquq sotsiologlari va yuristlar Bryant Garth, Elizabeth Mertz, Thomas Mitchell hamda Stewart Macaulay tashabbusi bilan 2004-yil iyun oyida Madison shahrida NLRning birinchi yirik simpoziumi tashkil etildi. Konferensiyada huquqshunoslar, sotsiologlar, psixologlar, iqtisodchilar va boshqa ijtimoiy fan vakillari ishtirok etib, “uch yo‘nalishli yondashuv”ni ishlab chiqish maqsadini qo‘ygan edilar, ya’ni huquqiy masalalarni, empirik ma’lumotlarni va siyosiy omillarni birgalikda tahlil qilish (bu “eski realistlar” g‘oyasining zamonaviy shakli edi).

Shundan so‘ng NLR xalqaro tarmoqqa aylandi: AQSHda u ABF va Viskonsin Huquqiy Tadqiqotlar Instituti tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi, muntazam konferensiyalar (jumladan, 2014 va 2024-yillardagi yubiley anjumanlari) o‘tkaziladi, Law & Social Inquiry va Wisconsin Law Review kabi jurnallarning maxsus sonlari hamda “The New Legal Realism” (2016) nomli monografiya chop etildi.

Yevropada esa o‘ziga xos “yangi realistlar” paydo bo‘ldi. Daniyalik olimlar Jakob Holtermann va Mikael Rask Madsen Yevropa NLR konsepsiyasini “huquqning fundamental fani” sifatida ilgari surib, uni epistemologiya va tabiiy fanlar bilan qiyoslash asosida rivojlantirdilar [2]. Ularning ishlari M. Veber, P. Burdye hamda skandinavialik “pozitivist” maktab vakili Alf Ross g‘oyalari bilan bog‘langan bo‘lib, huquqni “ilmiy asoslarda tushuntirish”, ya’ni normalarning yaratilishi va ularning ijtimoiy sharoitlarini tahlil qilishga qaratilgan.

Buyuk Britaniya va Yevropaning boshqa mamlakatlarida ham NLR mavzusi huquq va jamiyat bo‘yicha konferensiyalarda muhokama qilinib, 2021-yilda yevropalik olimlar ishtirokida “Zamonaviy huquqiy realizm bo‘yicha qo‘llanma” nashr etildi. Shuningdek, ingliz yuristi Uilyam Twining tomonidan yozilgan “New Legal Realism” (Cambridge, 2016) monografiyasi realizmni yanada keng, madaniy kontekstda talqin qiladi.

Demak, AQSHda NLRning asosiy e’tibori fanlararo empirik metodlar va huquq amaliyotiga qaratilgan bo‘lsa, Yevropada u huquqni ijtimoiy hodisa sifatida asoslash hamda “huquqning bazaviy fanini” yaratishga yo‘naltirilgan [3].

NLRning asosiy g‘oyalari va metodologiyasi

XX asrning “eski” realistlaridan farqli o'laroq, yangi realistlar o'z kuzatuvlarini faqat sud qarorlarigagina qaratmay, balki “kundalik hayotdagi huquq”ni ham o'rganadilar, ya'ni me'yorlar amalda qanday ishlashi, oddiy fuqarolar (faqat yuristlar emas) huquqni qanday qabul qilishi va unga qanday amal qilishi. Bu “pastdan yuqoriga” (“ground-up”) yondashuv bo'lib, u sifatli intervyular, miqdoriy tanlovlar, eksperimental dizaynlar kabi turli usullarni qo'llaydi va metodikani tadqiqot savoliga mos tanlaydi [1].

NLR shu bilan birga “yozma huquq” (statutory law) bilan bir qatorda “hayotdagi huquq” (law in action)ni ham tahlil qiladi, ya'ni ijtimoiy fanlar natijalarini “huquqiy til”ga, shuningdek huquqiy tushunchalarni ijtimoiy tahlilga tarjima qilishga intiladi. NLR tadqiqotchilari huquq va sotsiologiya o'rtasidagi chegaralarni yengib o'tishga harakat qiladilar: ular har bir fan o'zining tili va ustuvor yo'nalishlariga ega ekanini tan olib, “fanlararo tarjima” metodlarini ishlab chiqadilar (masalan, statistik ma'lumotlar va huquqiy kategoriyalarni birlashtirish) [1].

Yangi huquqiy realizm keng ko'lamli sud ma'lumotlari bazalariga va fanlararo tahlilga tayangan holda, inson xatti-harakatlari qonuniyatlarini aniqlaydi (masalan, sudyalarning qarorlarida “standart model”ni statistik tarzda qayd etish orqali) [4]. Pragmatik falsafasiga ko'ra, NLR uchun muhim narsa nafaqat “nima mavjud” (“is”)ni tavsiflash, balki bunga huquqiy siyosat qanday ta'sir ko'rsatishini va “nima bo'lishi kerak” (“ought”)ni tushunishdir.

Shu bilan birga, “yangi realizm” normativ oqibatlarga ham e'tibor qaratadi: u ijtimoiy-fanlar tadqiqotlari asosida huquqiy islohotlar uchun eng to'liq va obyektiv asos yaratishni maqsad qiladi. Ayrim tanqidchilarning fikricha, NLR har doim ham tubdan yangi g'oyalarni taklif qilmaydi: masalan, rossiyalik tadqiqotchi V.S. Gruzdev ta'kidlashicha, NLRning metodikasi (fanlararo empirik yondashuv, katta ma'lumotlarni tahlil qilish) amalda sotsiologik huquq tadqiqotlaridan keskin farq qilmaydi. Biroq u ham qayd etadiki, NLRning o'ziga xosligi shundaki, u sotsiologik ma'lumotlarni huquqiy kontekstga “tarjima qilish” zaruratini alohida ta'kidlaydi va huquqiy me'yorlarning amaliy samaralariga e'tibor qaratadi [5].

NLRning huquqshunoslik va amaliyotda qo'llanilishi misollari

Yangi huquqiy realizm (NLR) huquq va ta'lim sohalarida empirik tadqiqotlarda faol qo'llanilmoqda. Masalan, NLR olimlari AQSH Apellyatsiya sudlari qarorlarini batafsil o'rganib chiqqanlar: Kass Sansteyn va Tomas Maylz "sudya xatti-harakatining standart modeli"ni aniqlab, respublikachi va demokrat sudyalarning qarorlari o'rtasida statistik farqlarni, shuningdek, hay'at tarkibining ta'sirini ko'rsatib berdilar [4]. Bunday natijalar siyosatchilar va jamiyatga qonunlar hamda sud institutlarining "haqiqiy" ta'sirini tushunishga yordam beradi.

Huquqiy ta'lim sohasida ham NLR o'z aksini topgan. E.Mers ta'kidlaganidek, zamonaviy tahlilchilar huquqshunoslikdagi empirik yondashuvga e'tiborning qayta tiklanishini "yangi huquqiy realizm" yoki "empirik huquq tadqiqotlari" deb ataydilar [6].

Huquq va sotsiologiya o'zaro ta'siri: yangi huquqiy realizmning sotsiologik o'lchovi

Yangi huquqiy realizmning asosiy afzalliklaridan biri – huquqni o'z-o'zidan mavjud bo'lgan normalar tizimi sifatida talqin etishdan voz kechishidir. NLR nazariyasi shundan kelib chiqadiki, huquq jamiyat ichida yashaydi: normalar faqat xatti-harakatni tartibga solmaydi, balki ular ijtimoiy munosabatlar, qadriyatlar, iqtisodiy manfaatlar va ziddiyatlarni o'zida mujassam etadi.

An'anaviy huquqiy doktrina ko'pincha huquqni formalizm nuqtai nazaridan, ya'ni kontekstdan mustaqil matnlar va protseduralar majmui sifatida ko'rib kelgan. Biroq sotsiologik yondashuv shuni ko'rsatadiki, huquqni tushunish va qo'llash uning amalda faoliyat yuritayotgan muhitini tahlil qilish mumkin emas. Masalan, sud amaliyotini o'rganishda NLR nafaqat qonunni talqin etishga, balki sudyalarning xulq-atvoriga, jarayon ishtirokchilarining ijtimoiy holatiga, shuningdek, qarorlarga ta'sir etuvchi siyosiy omillarga ham e'tibor qaratadi.

Bunday metodologiya "kitobdagi huquq" (law in books) tahlilidan "amaldagi huquq" (law in action) tahliliga o'tishni ta'minlaydi. Bu yondashuv Rosko Paundning sotsiologik yurisprudentsiyasi bilan bog'liq bo'lib, Llevelin va Karduzo tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. Hozirgi zamonaviy NLR doirasida esa bu

yo'nalish yanada kengayib, huquqiy ong, huquqiy amaliyotlar va turli ijtimoiy qatlamlarda institutlarga nisbatan kutilmalarni o'rganishga qaratilgan tarmoqli (interdisiplinar) tadqiqotlarga aylangan.

Yuridik islohotlar va NLR yondashuvlarini qo'llash

O'zbekistonda hozirda adolatga ishonchni oshirish hamda sud hokimiyatining ochiqqligini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli sud-huquq islohotlari amalga oshirilmoqda. 2018-yilda Prezident farmoni bilan Oliy sud kengashi va yagona Oliy sud tashkil etildi, ma'muriy sudlar ochildi hamda sudyalarga muddatsiz xizmat qilish huquqi berildi. Shuningdek, sayyor sud majlislari amaliyoti kengaytirilmoqda, sud qarorlari va tushuntirishlarini e'lon qilish tizimi yo'lga qo'yildi. Ushbu choralar qonunlarning "hayotda ishlashini" ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu NLRning asosiy tamoyillaridan biridir. Xususan, 2018-yilgi farmon sud hokimiyatiga ishonchni oshirishni shaffoflik va fuqarolarning xabardorligini kuchaytirish orqali amalga oshirishni maqsad qilgan. Bu esa "amaldagi huquq" (law in action) konsepsiyasi bilan to'liq hamohangdir.

Shu bilan birga, mamlakatda huquqiy ma'rifat va ta'lim sohasida ham muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Masalan, 2019-yil 9-yanvardagi Prezident farmoniga binoan Street Law loyihasi yo'lga qo'yildi: unda yuridik fakultet talabalari maktablarda ko'ngilli huquq darslarini o'tkazadilar. 2020–2021-yillarda loyiha yuzlab maktablarni va minglab o'quvchilarni qamrab oldi, bu esa "yuqori huquqiy madaniyat"ni shakllantirish hamda huquqni kundalik hayotda qo'llash amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi. Shu bilan bir qatorda, davlat "malakali yuridik kadrlar tayyorlash" va aholining huquqiy madaniyatini oshirishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilagan [7].

NLR metodologiyasini o'zlashtirishdagi muammolar va imkoniyatlar

NLR metodologiyasini O'zbekistonda qo'llash bir qator an'anaviy to'siqlarga duch kelmoqda. Avvalo, mamlakatda empirik huquqiy tadqiqotlar madaniyati hali keng shakllanmagan: aksariyat huquqshunoslar hanuzgacha formal-nazariy yondashuvga tayanadilar, qonunning "hayotdagi amaliyoti"ga oid ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish esa kam uchraydi. 2019-yilgi farmon matnida bu holat

bilvosita e'tirof etilgan: unda "huquqiy madaniyatni oshirish bo'yicha tizimli va o'zaro bog'liq faoliyatning yo'qligi" qayd etiladi, bu esa mavjud choralar samaradorligi pastligidan dalolat beradi.

Ikkinchidan, mahalliy huquqiy madaniyat va institutlarning o'ziga xosligi G'arb metodologiyasini to'g'ridan-to'g'ri tatbiq etish uchun muayyan moslashtirishni talab qiladi. O'zbekiston huquq tizimini kontinental va sovet huquq maktablari asosida shakllantirgan bo'lib, jamiyatda rasmiy institutlarga bo'lgan ishonch tarixan uncha yuqori emas.

Shunday qilib, tahliliy muhitda ikki asosiy nuqtayi nazar mavjud. Bir tomondan, hukumat islohotlari va yangi ta'lim dasturlari paydo bo'layotgani NLR yondashuvi – "qonunning haqiqiy xatti-harakatdagi ko'rinishi"ga yo'naltirilgan uslub – asta-sekin O'zbekistonda o'z ildizini otishiga umid uyg'otadi. Boshqa tomondan, tanqidchilar hali ham qat'iy ierarxik huquqiy madaniyat saqlanib qolganini, huquq sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyati zaifligini va mahalliy xususiyatlarni hisobga olish zarurligini ta'kidlashadi.

Huquqiy ta'lim va amaliy tadqiqotlarga ta'siri

NLR yuridik ta'lim va empirik huquqiy tadqiqotlarga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Birinchidan, u ijtimoiy fanlarni yuridik ta'lim dasturlariga integratsiya qilishni rag'batlantiradi. Xususan, NLR tadqiqotlari bo'lajak yuristlarni empirik tahlil uslublariga o'rgatish zarurligini ta'kidlaydi. NLR loyihasining o'zida qayd etilishicha, bu "nafaqat ilmiy bahs-munozaralarga, balki ijtimoiy fanlarni yuridik amaliyot va yuridik ta'limda qo'llashga ham ta'sir ko'rsatadi". Shu maqsadda NLR doirasida huquqda sotsiologiya, iqtisodiy modellar va xulq-atvor fanlarini qo'llashga bag'ishlangan maxsus kurslar va seminarlar ishlab chiqilgan. AQSHdagi NLR olimlari ham ijtimoiy fanlarni yuridik ta'limga qanday integratsiya qilish mumkinligi, nazariya, empiriya va o'qitish amaliyotini qanday uyg'unlashtirish haqida maqolalar chop etmoqdalar. Bunday tadqiqotlar yuridik ta'lim mazmuni bilan yurist etikasi o'rtasida chuqur bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi: "huquqning ijtimoiy haqiqatini" anglash yanada inklyuziv va halol professional qadriyatlarni shakllantiradi.

Ikkinchidan, NLR huquqdagi amaliy tadqiqotlarning chegaralarini kengaytirmoqda. AQSH va Yevropada turli fanlararo empirik loyihalarga qiziqish ortib bormoqda. Olimlar diskriminatsiya, gender adolat, globallashtirish va ijtimoiy me'yorlarning huquqni qo'llashga ta'siri kabi masalalarni o'rganishda miqdoriy va sifat tahlil usullarini uyg'unlashtirmoqda. Masalan, AQSHdagi NLR tadqiqotchilari turli qonunlarning amalda aholi guruhlariga qanday ta'sir ko'rsatishini, normalarning samaradorligini o'zgartiruvchi "yashirin" omillarni aniqlaydilar va siyosatni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadilar.

Yevropada ham NLR tashabbuslari bosqichma-bosqich shakllanmoqda. 2012-yil may oyida Kopengagenda yangi yuridik realizm bo'yicha birinchi Yevropa konferensiyasi o'tkazildi, u turli mamlakat va yo'nalish olimlarini jamladi. Bu holat NLRning fanlararo metodologiyasiga (masalan, taqqoslamali-huquqiy tahlil va dala tadqiqotlarini birlashtirishga) bo'lgan qiziqish ortayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, o'zining huquqiy realizm an'analarga ega bo'lgan Skandinaviya mamlakatlarida sotsiologik yondashuvlarga qayta e'tibor berilmoqda.

Yangi huquqiy realizm zamonaviy yuridik fan uchun muhim ahamiyatga ega. Avvalo, u huquqiy nazariya va sud amaliyoti o'rtasidagi munozaralarga norma va empirikani birlashtirgan holda qayta hayot bag'ishlaydi. NLR (New Legal Realism) sotsiologik va yuridik tadqiqotlarning eng yaxshi yutuqlarini uyg'unlashtirib, nazariya va amaliyotni bog'laydi. Bu esa huquqiy qarorlarni ishlab chiqishda real ma'lumotlar va amaliy tajribaga tayanish imkonini berib, huquqshunoslikni yanada pragmatik va amaliy qiladi.

Nazariy jihatdan yangi realizm yondashuvi O'zbekiston huquqshunosligini fanlararo yondashuv orqali boyitishi mumkin: huquq tadqiqotchilari sotsiologiya, iqtisodiyot, psixologiya va klassik huquq bilimlarini sintez qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Amaliy jihatdan esa bu metodologiya huquqiy ma'rifat, sud amaliyoti va huquqiy siyosat sohalarida o'z ahamiyatini ko'rsatadi. Masalan, empirik huquqshunoslik kurslari talabalarda qonunlarning amalda qanday ishlashini tanqidiy baholash ko'nikmalarini shakllantiradi. Sud amaliyotida esa jinoyatlarning ijtimoiy

konteksti yoki tomonlarning niyatlarini hisobga olgan holda empirik ma'lumotlardan foydalanish qarorlarning asoslanganligini oshiradi. Huquqiy siyosatda NLR ijtimoiy so'rovlar, statistika va mutaxassislar bilan intervyular asosida "isbotlangan ma'lumotlar"ni yaratishga yordam beradi, bu esa rasmiy jihatdan to'g'ri, ammo ijtimoiy jihatdan samarasiz qarorlar qabul qilinish xavfini kamaytiradi.

Natijada, NLR metodologiyasi yuridik tahlil sifatini oshiradi, huquq fanini jamiyat oldida yanada mas'uliyatli qiladi, akademik aniqlikni amaliy foydalilik bilan uyg'unlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, yangi huquqiy realizm zamonaviy yuridik fan oldiga "amalda ishlaydigan huquq"ni hisobga olish va empirik ma'lumotlarga tayanish zaruratini qo'yadi. U an'anaviy doktrinal yondashuvlarni boyitadi va uzoq muddatda postsovet mamlakatlarida (shu jumladan, O'zbekistonda) yuridik ta'lim, sud amaliyoti hamda qonun ijodkorligi samaradorligini oshirish imkonini beradi. Huquqning ijtimoiy o'lchovini tan olish esa yanada real, pragmatik va adolatli huquqiy yechimlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *History of New Legal Realism and the ABF*// americanbarfoundation.org
2. *European New Legal Realism: Towards a Basic Science of Law-* Jakob v. H. Holtermann, Mikael Rask Madsen
3. *European New Legal Realism and the Empirical Turn in Legal Scholarship* Jakob von Holderstein Holtermann, Mikael Rask Madsen
4. *The New Legal Realism-* C. Sunstein, Thomas J. Miles
5. Груздев Владимир Сергеевич. Новый правовой реализм // Право и политика. 2019. – №12. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/novyy-pravovoy-realizm>.

6. *Inside the Law School Classroom: Toward a New Legal Realist*

Pedagog-Elizabeth Mertz

7. Кондаков А. Конфигурации права: как действует закон о «пропаганде» в школах. Журнал социологии и социальной антропологии, 2017. 20(5):
– с-187–206.

